



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº S/6 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy

kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Norov Shukrat Suvonovich</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ ПРИ УЧАСТИИ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИИ	8-13
<i>Jo'raqulov Boburmirzo, Masidikov Elyor</i>	
TUNKAT YODGORLIGIDAN TOPILGAN O'RSTA ASRLAR OILAVIY HAMMOMI	14-19
<i>Allaberganova Ro'zgul</i>	
MUSTAQILLIK YILLARIDA URGANCH SHAHRI QIYOFASINING O'ZGARISHI	20-23

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Dr. Abror Kucharov and Dr. Jyoti Meshram</i>	
INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: A CATALYST FOR INDIAN INVESTMENT	24-38
<i>Raximbayev Akmal Azatboyevich</i>	
HUDUDLARDA SANOAT AGLOMERATSIYALARINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	39-46
<i>Mamajonova Nodiraxon Alisher qizi</i>	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	47-57
<i>Xasanova Dildora O'ktam qizi</i>	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIGA IXTISOSLASHGAN XO'JALIK VA KORXONALAR FAOLIYATIDA ISHLAB CHIQARISH	58-71

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Abdusattarova Sitora</i>	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИУМ: ФИЛОСОФСКО-ПРАВОВОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ	72-78
<i>Kubatov Shahobjon</i>	
UYG'UNLIK G'OYASI VA IJTIMOIY DAVLAT HAQIDAGI TA'LIMOTLARNI SINTEZ QILISH MASALALARI	79-88
<i>Uralov Dilshodbek</i>	
ON HUMAN MORALITY AND PROFESSIONAL CULTURE IN THE ETHICAL VIEWS OF IBN SINO	89-93
<i>Tagaev Kamol</i>	
YANGI O'ZBEKISTONDA RAHBARLARNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY LOYIHALARNING STRATEGIK AHAMIYATI	94-99
<i>Xaydarova Zebiniso Nusratullayevna</i>	
EMPIRIZM, RATSIONALIZM VA KONSTRUKTIVIZM KABI TURLI EPISTEMOLOGIK NAZARIYALarda INSON MAVJUDLIGI MASALALARI	100-106
<i>Mamadiyarova Malika</i>	
OILAVIY QADRIYATLARNING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARI	107-111
<i>Xolova Umida Umedovna</i>	
MA'RIFAT VA MA'NAVİYAT UYG'UNLIGINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI: TARIXIY-FALSAFIY TAHLIL	112-118

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Baxramova Dilovarxon Gazanfarovna</i>	
O'ZBEK VA ISPAN TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	119-122

<i>Qozoqboyeva Dilfuzaxon Ilxomjon qizi</i>	
GENDER STEREOTYPES OF SPEECH OF UZBEK CHILDREN	123-128
<i>Pulatjonova Muxtar</i>	
POLITENESS STRATEGIES IN ENGLISH AND UZBEK: A PRAGMATIC AND CROSS-CULTURAL COMPARISON	129-132
<i>Chernova Natalya Vasiliyevna</i>	
RUS BOLALARNING NUTIQDA GENDERGA OID BELGILARNI SHAKLLANISHNING LINGVISTIK MEXANIZMLARI	133-136
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Komilov Avazbek</i>	
PROKURATURA ORGANLARI TOMONIDAN PROKUROR HUQUQIY VOSITALARINI QO'LLASH BO'YICHA XORIJY MAMLAKTALAR TAJRIBASI.....	137-146
<i>Rasulov Jurabek Abdusamiyevich</i>	
XALQARO HUQUQ INQIROZI: ZO'RQISH OSTIDAGI TIZIM	147-152
<i>Nishonov Abdulloh</i>	
ATOM ENERGIYASIDAN FOYDALANISH JARAYONIDA OBYEKTLARNI JOYLASHTIRISHDA XALQARO EKOLOGIK NORMALARNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING MILLIY QONUNCHILIKKA INTEGRATSİYASI.....	153-159
<i>Yusupjanova Gulnoza Ilxomovna</i>	
JINOYAT PROTSESSIDA SUDNING FUNKSIYASI	160-167
<i>Tursoatov Sodiq Xudoyor o'g'li</i>	
YUKSAK XIZMAT KO'RSATISH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZBEKİSTON QONUNCHILIGIDA IFODALANISHI MASALALARI.....	168-174
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i>	
MAHALLIY BUDJETNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	175-179
<i>Парахатова Шахноза Ерназаровна</i>	
ОБРАЗЦЫ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ: ПОНЯТИЕ И ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ	180-193
<i>Узбекова Дильтюдода Тулкиновна</i>	
КЛАССИФИКАЦИЯ МЕР ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ	194-202
<i>Norboyev Bobur</i>	
LEGAL FRAMEWORKS FOR DIGITAL TECHNOLOGY APPLICATION IN LAND CADASTRE: INTERNATIONAL EXPERIENCES AND PRACTICES IN UZBEKISTAN	203-211
<i>Gafurova Shoira Baxodirovna</i>	
XALQARO JINOYAT HUQUQIDA DALILLAR INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	212-216
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich</i>	
HARBIY XIZMATGA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O'QUVCHILARNING JISMONIY SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSİYALASHGAN YONDASHUVLAR: JISMONIY TARBIYA VA CHAQIRUVGA QADAR TAYYORGARLIK ASOSIDA.....	217-221
<i>Kamalova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda</i>	
KINEMATİKADAN OLIMPIADA MASALALARİ: KINEMATİK MASALALARDA YUQORI DARAJALI YECHIM YONDASHUVLARI	222-227

Received: 5 July 2025

Accepted: 20 July 2025

Published: 30 July 2025

Article / Original Paper

THEORETICAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF THE INSTITUTE OF EVIDENCE IN INTERNATIONAL CRIMINAL LAW

Gafurova Shoira Baxodirovna

PhD student Tashkent

state law university

E-mail: shgafurova707@gmail.com

Abstract. This article examines the concept of evidence in international criminal law, its types, and the application of evidence in criminal cases, as well as one of the pressing issues today - the application of electronic evidence. At the same time, a comparative analysis of the similarities and differences of national and international legislation is carried out.

Keywords: international law, international criminal court, evidence, types of evidence, Roman statute, electronic evidence.

XALQARO JINOYAT HUQUQIDA DALILLAR INSTITUTINING NAZARIY- HUQUQIY ASOSLARI

Gafurova Shoira Baxodirovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro jinoyat huquqida dalillar tushunchasi, ularning turlari va jinoyat ishida dalillarning qo'llanilishi, hozirgi kundagi dolzARB masalalardan biri elektron dalillarni qo'llash masalasi ko'rib chiqiladi. Shu bilan birligida milliy va xalqaro qonunchilikning o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xalqaro huquq, xalqaro jinoyat sudi, dalillar, dalillarning turlari, rim statuti, elektron dalillar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI6Y2025N28>

Xalqaro jinoyat protsessi doirasida ko'rib chiqiladigan jinoyat ishlari bo'yicha dalillarning roli va ahamiyati to'g'risidagi masalani tahlil qilishdan oldin dalillar o'zi nima ekanligini aniqlash zarur. Avvalambor, milliy qonunchiligidan qilmoqchiman. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq, "Ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergen-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi" [1]. Boshqacha aytganda, isbotlanishi lozim bo'lgan faktlar to'g'risida qonunda yo'l qo'yiladigan vositalar va usullar yordamida olingan ma'lumotlar dalillar deb ataladi. Dalillar bilan ishslashda to'g'ri natijaga erishish uchun ular ilmiy guruhlarga ajratiladi, ya'ni tasniflanadi. Tasniflash asoslari turlich, ammo bir nechta guruhlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- hosil bo'lish usuliga ko'ra: *shaxsiy va ashyoviy*

➤ shakllanish manbaiga ko'ra: *dastlabki va hosila* dalillarga bo'linadi[2].

Ularning hammasi va har biri alohida-alohida bitta umumiy tezisga ishora qilgan taqdirdagina dalillar sistemasi vujudga keladi.

Jinoyat-protsessual huquqida dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iborat bo'lgan isbotlashga katta ahamiyat beriladi. Isbotlash jarayonining boshlanish vaqtini aniqlash masalasi jiddiy ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim masala hisoblanadi. Jinoyat protsessida mavjud bo'lgan nuqtai nazarlardan biri shundan dalolat beradiki, isbot qilish jarayoni faqat jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng, tergovchi dalillarni olishning qonunda nazarda tutilgan barcha usul va vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgandagina vujudga keladi. Haqiqatan ham, agar biz qonunga murojaat qiladigan bo'lsak, dalillarning asosiy qismi tergovchi tomonidan aynan jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin olinishini ko'ramiz, chunki faqat tergovchi asosan dalillarni olish imkoniyatini beradigan tergov harakatlarini amalga oshirish huquqiga ega.

Aynan jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida tergovchi birinchi marta dalillar va ularning bahosi bilan to'qnashadi, chunki u nafaqat jinoyat ishini qo'zg'atish (va ish yangi bosqichga o'tadi), balki jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risida ham qaror qabul qilishi mumkin, shundan so'ng jarayon to'xtatiladi. Bayon etilganlardan kelib chiqadiki, isbotlash jarayoni jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ham mavjud bo'lib, u dalillarni olish va baholash bilan bog'liq[3].

Xalqaro huquq normalariga kelsak, Jinoyat ishlari bo'yicha Xalqaro sudning sud ishlarini yuritishga asos bo'lgan Rim statutining 69-moddasida[4] dalillar quyidagicha tasniflanadi:

"Ko'rsatuv berishga kirishishdan oldin har bir guvoh ish jarayoni va isbotlash qoidalariga muvofiq haqqoniy ko'rsatuvlar berish majburiyatini oladi".

Guvohlar sud majlisida shaxsan o'zları ko'rsatma beradilar, chunki 68-moddada Protsedura va isbotlash qoidalarida bayon etilgan chora-tadbirlarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan. Sud, shuningdek, guvohning jonli ovozda (og'zaki) yoki video yoki audiotexnika yordamida yozib olingan ko'rsatmalarini berishga, shuningdek, ushbu Nizom qoidalariga rioya qilgan holda va Protsedura va isbotlash qoidalariga muvofiq hujjatlar yoki yozuvlarni taqdim etishga ruxsat berishi mumkin. Bu choralar ayblanuvchiga zarar yetkazmasligi yoki uning huquqlariga zid bo'lmasligi kerak.

64-moddaga muvofiq taraflar ishga taalluqli dalillarni taqdim etishlari mumkin. Sud haqiqatni aniqlash uchun zarur deb hisoblagan barcha dalillarni taqdim etishni talab qilishga haqli.

Sud Protsedura va isbotlash qoidalariga muvofiq har qanday dalillarning daxldorligi yoki maqbulligi to'g'risida qaror chiqarishi mumkin, bunda, shu bilan birga, ularning kuchini, shuningdek bunday dalillar odil sud muhokamasini o'tkazishga yoki guvohning ko'rsatuvlariigaadolatli baho berishga yetkazishi mumkin bo'lgan zararni hisobga oladi. Sud Protsedura va isbotlash qoidalarida nazarda tutilgan maxfiylik imtiyozlarini hurmat qiladi va ularga rioya qiladi. Sud hammaga ma'lum bo'lgan faktlarni isbotlashni talab qilmaydi, lekin ularni sud tartibida ma'lumot uchun qabul qilishi mumkin.

Ushbu Statut qoidalari xalqaro miqyosda tan olingan inson huquqlarini buzish natijasida olingan dalillarga quyidagi hollarda yo'l qo'yilmaydi, agar:

✓ qoidabuzarlik dalillarning ishonchliliga jiddiy shubha tug'dirsa; yoki

- ✓ dalillarni qabul qilish ishni vijdonan ko'rib chiqishga to'g'ri kelmasa va unga jiddiy zarar yetkazsa.

Davlat tomonidan to'plangan dalillarning maqbulligi yoki aloqadorligi masalasini hal qilishda, Sud ushbu davlatning milliy qonunchiligini qo'llash bo'yicha qaror chiqarmasligi kerak.

69-moddaning 5-bandи "maxfiylik imtivozi" ma'lum shubhalarni keltirib chiqaradi, chunki qonunda ushbu imtivoz qaysi aniq dalillarga nisbatan qo'llanilishi haqida tushuntirish berilmagan. Shu bilan birga, Statutning 72-moddasida milliy xavfsizlikka daxldor ma'lumotlarni himoya qilish ko'rsatilgan. Biroq dalillar sifatida nafaqat mamlakat milliy xavfsizligiga daxldor hujjatlar, balki ishni ko'rib chiqish jarayonida olingan boshqa dalillar, masalan, davlat rahbari yoki boshqa mansabdor shaxslar ham ishtirok etayotgani shubha tug'diradi.

Bundan tashqari, Rim statuti dalillarning aniq ro'yxatini nazarda tutmaydi, bu esa ulardan huquqni qo'llash amaliyotida foydalanishni qiyinlashtiradi. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ortib borishi natijasida jinoyat ishida ham elektron dalillarni qo'llash masalasi ilgari surilmoqda. So'nggi o'n yilliklarda jinoiy tergovchilar va sudyalar xalqaro va ichki sud jarayonlarida jinoyat sodir etish bilan bog'liq faktlarni aniqlashni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida raqamli texnologiyalarga tobora ko'proq tayanmoqda. Xalqaro kontekstda videoyozuvlар, ochiq manbali onlayn ma'lumotlar, havodan dron orqali olingan tasvirlar, ijtimoiy media kontenti kabi keng ko'lamlı raqamli vositalarning mavjudligi inson huquqlarining jiddiy buzilishini tergov qilishni kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar ochib bormoqda.

Xalqaro jinoyatlarni ta'qib etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish xalqaro jinoiy tribunallarga jinoyat sodir bo'lgan joylardan uzoqligi (ham geografik, ham vaqt jihatdan) va mahalliy hokimiyat organlari hamkorligiga bog'liqligi sababli duch keladigan ba'zi to'siqlarni yengib o'tish imkonini beradi. Ko'pgina hollarda, masalan, siyosiy tartibsizliklar va qurolli to'qnashuvlar sodir bo'lib turgan paytlarda guvohlarning ko'rsatmalarini olish, ularni so'roq qilishda vaqt va mablag'ni tejashda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash har tomonlama qo'l keladi. Xalqaro tribunallar dalillar to'plashda nafaqat davlatlar balki xalqaro tashkilotlar bilan ham hamkorlik qilishini inobatga olgan holda raqamli texnologiyalarni qo'llash ayni muddao hisoblanadi[5].

Sun'iy yo'ldosh tasvirlaridan dalillarning isboti sifatida foydalanish misollarini Xalqaro jinoyat sudi amaliyotida ham topish mumkin. Misol uchun, *Darfur*[6] ishida prokuror hukumatning isyonchilarga qarshi zo'ravonlik sodir etganligini isbotlash uchun raqamli texnologiyalardan foydalangan. Bundan tashqari 2005-yil 14-fevralda Livan Bosh vaziri Rafiq Haririning o'limiga sabab bo'lgan teraktga olib kelgan tayyorgarlik harakatlarini isbotlash uchun terrorizm jinoyati bo'yicha yurisdiksiyaga ega bo'lgan yagona xalqaro sud bo'lgan Livan Maxsus Tribunaliga (STL) telekommunikatsiya dalillari, jumladan, qo'ng'iroq ma'lumotlari qaydlari va uyali aloqa saytlari haqidagi ma'lumotlarning taqdim etilishi ham ushbu jinoyatning ko'rib chiqilishiga katta yordam bo'lgan.

Xalqaro sud jarayonlarida video va fotosuratlardan dalil sifatida foydalanish yangilik emas. Bu sud zalida Ikkinci jahon urushining so'nggi kunlarining jonli tasvirlari namoyish etilgan va sudyalarning faktlarga baho berishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan Nyurnberg sudiga borib taqaladi. So'nggi yillarda esa bu kabi raqamli texnologiyalardan foydalanish soni tobora ortib bormoqda. Masalan, Sobiq Yugoslaviya bo'yicha Xalqaro Jinoyat Tribunal (ICTY) *Tolimir*

ishida mahbuslarning katta guruhlari va ma'lum joylarda jasadlarni topish, binolar va transport vositalari mavjudligini isbotlash uchun AQSh harbiylari tomonidan prokurorga taqdim etilgan sun'iy yo'dosh tasvirlariga murojaat qiladi. Srebrenitsada sodir etilgan ommaviy va og'ir qotilliklarni isbotlash uchun tasvirlari ishlataligan[7].

Biz yaxshi bilamizki, har qanday xalqaro jarayonda ikki, ba'zan esa undan ham ko'p davlat ishtirok etadi, ularning har biri o'z milliy qonunchiligiga ega bo'lib, uning normalari bir-biridan farq qilishi mumkin. Shu munosabat bilan yagona yechimga kelish ancha qiyin bo'ladi. Agar Rim statutida xalqaro sud ishlarini yuritish ishtirokchilari uchun majburiy bo'lgan dalillarning batafsil ro'yxati nazarda tutilganida edi, turli qarama-qarshiliklarning oldi olingan bo'lar edi.

Ta'kidlash joizki, dalillarni aniqlash, qayd etish, olib qo'yish, tadqiq etish va ulardan foydalanish bilan bog'liq jarayon xalqaro huquqda ham qonun bilan mustahkamlanishi lozim. U yoki bu me'yoriy materialga o'zgartirishlar kiritish har doim muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi va bu hujjat xalqaro maqomga ega bo'lganda yanada murakkablashadi. Bugungi kunda umummajburiy xususiyatga ega bo'lgan jinoyat-protsessual normalarni qabul qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Rim statutiga imzo chekkan va uni ratifikatsiya qilgan davlatlar uning barcha qoidalariга rioya qilishlari kerak. Agar uni qayta ishslash zarurati tug'ilsa, davlatlararo huquqiy komissiya tuzilishi kerak, uning tarkibiga xalqaro huquq va jinoyat protsessi sohasidagi mutaxassislar kiritilishi shart. Bu esa undan huquqni qo'llash amaliyotida eng samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Sudning hukm chiqarishi, shu jumladan xalqaro jinoyat protsessi doirasida ham, tergov va sud muhokamasi davomida amalga oshirilgan jinoyat ishi bo'yicha oldingi barcha xalqaro jinoyat-protsessual faoliyatning mantiqiy yakunidir. Tabiiyki, hukm protsessual hujjat sifatida qonuniy, asosli vaadolatli qaror qabul qilish imkonini beradigan, aniqlangan va isbotlangan yuridik ahamiyatga molik holatlarni aks ettirishi lozim. Bu esa, umuman protsessual faoliyat, jinoyat ishlari bo'yicha dalillar va isbotlash bir necha nisbatan mustaqil bosqichlardan o'tadigan, o'zining huquqiy tartibga solinishi va amalga oshirilishi xususiyatlariga ega bo'lgan murakkab tizim ekanligining natijasidir.

Har qanday jinoyat ishi bo'yicha dalillarning roli va ahamiyati o'ziga xos, universal xususiyatga ega bo'lib, ularni baholamaslik mumkin emas. Bu, ayniqsa, xalqaro jinoyat protsessida sud tomonidan chiqariladigan hukmning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual kodeksi - <https://lex.uz/docs/-111460?ONDATE=21.11.2024%2000#-253745>
2. Наумов А.В.- Международное уголовное право: учебник для вузов/ — 5-е изд., перераб. и доп.— Москва: Юрайт, 2024.— 501с.
3. Steven M Cerny - The Intersection Between Social Networking and Litigation: Discovery and Authentication of Social Media Evidence - <https://heinonline.org/HOL/LuceneSearch?terms=Problems+with+the+presentation+and+authentication+of+electronic+evidence&collection=all&searchtype=advanced&typea=text&tabfrom=&submit=G&sendit=&all=true>
4. Римский статут международного уголовного суда - [https://www.un.org/ru/law/icc/rome_statute\(r\).pdf](https://www.un.org/ru/law/icc/rome_statute(r).pdf)

5. Freeman, L., Prosecuting Atrocity Crimes with Open Source Evidence: Lessons from the International Criminal Court, in: Dubberley, S.; Koenig, A.; Murray, D. (eds.), Digital Witness - Using Open Source Information for Human Rights Investigation, Documentation, and Accountability, Oxford University Press, Oxford, 2019, pp. 48-6
6. International Commission of Inquiry on Darfur, Report of the International Commission of Inquiry on Darfur to the United Nations Secretary-General, 2005, paras. 183 and 301, [<https://www.legal-tools.org/doc/1480de/pdf/>], Accessed 12 January 2023. On the use of satellite imagery as evidence in the jurisprudence of the ICC see Sandalinas, J., Satellite Imagery and its use as Evidence in the Proceedings of the International Criminal Court, Zeitschrift Fur Luft-Und Weltraumrecht: Vierteljahresschrift Des Instituts Fur Luft- Und Weltraumrecht Der Universitst K5In, Vol. 64, No. 4, 2015, pp. 666-675

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº S/6 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).